



MAQSUD SHAYXZODANING HAYOTI VA IJODIY SHAKLLANISHI

Amirxonov Ibrohim Abdurahmon o'g'li

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning hayoti, ijodiy shakllanishi, uning adabiyotga kirib kelish jarayoni hamda o'zbek madaniyatiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Adibning ijodiy kamolotida tarixiy voqealar, adabiy muhit va milliy qadriyatlarning tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Shuningdek, shoirning tarixiy dramalari, tarjimalari va lirikasidagi badiiy tamoyillar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, hayoti va ijodi, tari

Keywords: Maqsud Shaykhzoda, life and work, historical drama, Uzbek literature, dramaturgy, translation, poetic thought. Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ijodkor, dramaturg, shoir va tarjimon sifatida alohida o'rin egallagan adibdir. Uning hayoti va ijodining shakllanish jarayoni nafaqat shaxsiy izlanishlar, balki davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan ham chambarchas bog'liq. Shayxzoda ijodining dastlabki bosqichlari, avvalo, uning bilimga chanqoqligi, turli sohalardagi adabiy va tarixiy manbalarni chuqur o'rganishi orqali shakllangan bo'lib, bu jarayon uning keyingi ijodida ham yorqin iz qoldirgan.

Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Boku shahrida tug'ilgan bo'lib, yoshligidan ilm-ma'rifatga katta qiziqish bilan ulg'aydi. U o'z davrining ilg'or madaniy muhitida voyaga yetgan adiblardan biri sanaladi. Bolalik va o'smirlik yillaridayoq adabiyot, tarix va falsafaga bo'lgan qiziqishi uning dunyoqarashini kengaytirib, mustaqil fikrlovchi ijodkor sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, Sharq adabiyoti, klassik she'riyat va tarixiy manbalarni o'rganishi uning keyingi asarlarida o'z aksini topgan. Shayxzoda ijodiy faoliyatining ilk bosqichida gazeta va



jurnallarda kichik she'rlari, badiiy publitsistik maqolalari bilan tanilgan. Uning bu davrdagi adabiy faoliyati poetik izlanishlar, til va badiiy ifoda imkoniyatlarini keng o'rganish bilan xarakterlanadi. Adibning yoshlik yillaridagi she'rlari ko'proq lirizm, falsafiy mushohada va hayot mazmuni haqidagi o'ylar bilan sug'orilgan bo'lib, bu jihatlar uning keyingi yirik asarlarida ham davom etdi. 1927-yilda boshlangan siyosiy qatag'onlar Shayxzodaning taqdirida katta burilish yasadi. U asossiz ayblovlar bilan O'zbekistonga surgun qilindi va aynan shu yerda uning ijodi yangi bosqichga ko'tarildi. Toshkentning boy adabiy muhiti, xalqning madaniy merosi, milliy tarixiy qiyofalar adibning badiiy izlanishlarga to'la yangi davrini boshlab berdi. Bu jarayonda u o'zbek adabiyotining yetakchi namoyandalari — Oybek, G'afur G'ulom, Mirtemir, Abdulla Qahhorlar bilan ijodiy muloqotda bo'ldi. Maqsud Shayxzodaning ijodiy shakllanishida tarixiy mavzular alohida o'rin tutadi. Uning "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi" kabi tarixiy dramalari o'zbek adabiyotining durdonalari qatoriga kiradi. Bu asarlarda adib tarixiy haqiqatni badiiy talqin orqali ochadi, tarixiy shaxslar taqdirida insoniylik, vatanparvarlik, ma'naviyat kabi qadriyatlarni kuylaydi. Shayxzodaning sahna asarlari o'zining dramatik kuchi, tarixiy asoslanganligi va qahramon xarakterining yuksak badiiy talqini bilan ajiralib turadi. Shuningdek, adibning tarjima faoliyati ham uning ijodiy shakllanishini boyitdi. U jahon adabiyotidan qilgan tarjimalarida asliyatning badiiy ruhini saqlagan holda o'zbek adabiyotiga yangi nafas olib kirdi. Tarjima jarayoni Shayxzodaning til, ohang, badiiy mahoratini yanada takomillashtirdi. Maqsud Shayxzoda hayoti davomida nafaqat shoir va dramaturg, balki adabiyotshunos olim sifatida ham tanildi. Uning ilmiy maqolalari, adabiy-tanqidiy fikrlari, tarixiy manbalarga bergan talqinlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Adibning ijodiy merosi o'zbek milliy teatrining rivojiga, adabiy tafakkurning chuqurlashishiga va yosh avlodning ma'naviy kamolotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda Maqsud Shayxzoda merosi keng o'rganilmoqda, uning dramalari sahnalashtirilmoqda, she'rlari qayta nashr qilinmoqda. Adibning hayot yo'li matonat, iste'dod,



ma'rifatparvarlik va xalqiga sadoqat namunasi sifatida yoshlar uchun ibrat maktabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda (*ma'rifiy-biografik roman*). — Toshkent: Sharq, 2009.
2. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent, 1999.
3. Shayxzoda Maqsud. *Shoir kalbi dunyoni tinglar*. — Toshkent: Nihol, 2008.
4. *Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida*. — Toshkent, 1983.
5. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/maqsud-shayxzoda-1908-1967/>
6. Amanlikova N. R. “Maqsud Shayxzoda va Odil Yoqubovning tarixiy asarlarida Mirzo Ulug‘bek obrazi talqini”.